

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                                                                                 |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Р.З.Хайров</b><br>Интеграция Adobe Photoshop и платформ Google Arts & Culture в образовательный процесс будущих педагогов изобразительного искусства .....                                   | 106 |
| <b>X.A.Madaminov</b><br>Turli yosh toifasidagi yunon-rum kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish tahlili .....                                                             | 114 |
| <b>S.T.Xakimov, M.N.Murodova</b><br>10–12 yoshli qizlar orasida chim ustida xokkey bo'yicha jismoniy chidamlilikni oshirish metodikasi.....                                                     | 120 |
| <b>A.N.Qosimov</b><br>Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish: ijtimoiy-pedagogik asoslar va zamonaviy yondashuvlar.....                                                            | 125 |
| <b>S.T.Xakimov, K.M.Uktamova</b><br>Gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni tatbiq qilish ..... | 130 |
| <b>B.B.Xaitbayeva</b><br>Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....                                                         | 134 |
| <b>Z.N.Usmonov</b><br>Ixtiyoriy harakatlar va ularning fiziologik mexanizmi .....                                                                                                               | 140 |
| <b>A.I.Tuychiyev</b><br>Maktab yoshidagi o'quvchilar organizmida funksional faollikni ta'minlovchi asosiy omillar.....                                                                          | 145 |
| <b>Sh.D.Ismoilov</b><br>Jismoniy harakatlarning mazmuni va strukturasining nazariy asoslari .....                                                                                               | 151 |
| <b>T.T. Yusupov</b><br>Inson jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligining o'lchamlari tahlili .....                                                                                            | 156 |
| <b>M.G'.Zaylobidinova</b><br>Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini oshirish kasbiy muvaffaqiyat asosidir.....                                             | 162 |
| <b>M.X.Komilova</b><br>G'arb ilmiy tadqiqotlarida onomastikasining pedagogik ahamiyati .....                                                                                                    | 168 |
| <b>N.R. Mansurova</b><br>Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....                                                                          | 172 |
| <b>A.K.Yusupova N.A.Aliyev</b><br>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlanishning ba'zi masalalari .....                                  | 180 |
| <b>G.Sh. Latipova</b><br>Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari .....                                                    | 184 |
| <b>N.O. Xaydarova</b><br>Tibbiyot OTMlari o'quv jarayonida bo'lajak shifokorlarning reflektiv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....                                             | 191 |
| <b>М.М.Боркошев</b><br>Влияние тренерского стиля на социализацию юных спортсменов в командных видах спорта.....                                                                                 | 195 |
| <b>S.S.Ubaydullayev</b><br>Talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....                                                                                | 199 |
| <b>Z.N.Ortiqova</b><br>Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning assotsiativ fikrlashga ta'siri .....                                                                | 203 |
| <b>М.М.Умаралиева</b><br>Развитие самостоятельного обучения в высшем образовании с помощью интерактивных мультимедийных инструментов .....                                                      | 207 |
| <b>Z.N.Ortiqova, Sh.M.Yigitaliyeva</b><br>Boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi dars tushunchasi va uning maqsadlari .....                                                                    | 211 |
| <b>H.A.Saipova, X.I.Obidova</b><br>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini rivojlantirishda hikoyaning o'rni.....                                                             | 215 |



UO'K: 81373.6.81373.21

**G'ARB ILMIY TADQIQOTLARIDA ONOMASTIKANING PEDAGOGIK AHAMIYATI****ОНОМАСТИКА В ЗАПАДНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ: ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ****ONOMASTICS IN WESTERN SCIENTIFIC RESEARCH: PEDAGOGICAL RELEVANCE**

**Komilova Muxtaram Xotamjon qizi**   
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy onomastika sohasidagi taniqli xorijiy olimlar — Richard Coates, Patrick Hanks, Ernest Weekley va David Millsning ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi. Jumladan, ularning shaxs ismlari, familiyalar va toponimlarning etimologiyasi, tarixiy shakllanishi va lingvistik xususiyatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur olimlarning onomastika va umumiy lingvistika rivojiga qo'shgan nazariy va amaliy hisssasi yoritiladi. Mazkur maqola onomastika va tilshunoslik yo'nalishida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются научные исследования известных зарубежных ономастов современности — Ричарда Коутса, Патрика Хэнкса, Эрнеста Уикли и Дэвида Миллса. Анализируются их труды по этимологии, историческому формированию и лингвистическим характеристикам личных имен, фамилий и топонимов. Кроме того, освещается вклад данных ученых в развитие ономастики и общей лингвистики как в теоретическом, так и в прикладном аспекте. Статья представляет собой ценный источник для специалистов, занимающихся ономастическими и лингвистическими исследованиями.

**Abstract**

This article examines the scholarly research of leading foreign onomasticians in modern studies—Richard Coates, Patrick Hanks, Ernest Weekley, and David Mills. It analyzes their contributions to the etymology, historical formation, and linguistic characteristics of personal names, surnames, and place names. The article also highlights their theoretical and practical impact on the development of onomastics and general linguistics. This study serves as a valuable academic resource for researchers in the fields of onomastics and linguistics.

**Kalit so'zlar:** Onomastika, etimologiya, familiyalar, joy nomlari, lingvistika, tarixiy tadqiqotlar, toponimiya, antroponimiya.

**Ключевые слова:** Ономастика, этимология, фамилии, топонимы, лингвистика, исторические исследования, топонимия, антропонимия.

**Key words:** Onomastics, etymology, surnames, place names, linguistics, historical research, toponymy, anthroponymy.

**KIRISH**

Onomastika insoniyat tarixiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxs ismlari va joy nomlarining kelib chiqishini, ularning ma'no va tuzilishini o'rganadi. Zamonaviy onomastik tadqiqotlar tilshunoslik, tarix, madaniyat va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Onomastik birliklar inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti va tafakkuri bilan chambarchas aloqador bo'lgan til hodisalari sifatida o'rganiladi. Ular xalqning tarixiy xotirasi, mentaliteti, urf-odati va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu bois, onomastika nafaqat sof lingvistik tahlil doirasida, balki madaniy, tarixiy, sotsiologik va antropologik yondashuvlar bilan ham tadqiq etilmoqda.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda olib borilayotgan onomastik izlanishlar nomlarning tizimli o'rganilishi, ularning kelib chiqish sabablari, semantik qatlamlari va ijtimoiy funksiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilshunosligida onomastika faniga katta e'tibor qaratilib, bu borada ko'plab yetuk olimlar tomonidan nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan. Ushbu maqolada Richard Coates, Patrick Hanks, Ernest Weekley va David Mills kabi taniqli xorijlik tilshunos olimlarning onomastika sohasiga qo'shgan hisssasi tahlil qilinadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Richard Coates - zamonaviy onomastika sohasida faoliyat yuritayotgan olimlardan biri. U ingliz joy nomlari va familiyalarining etimologiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan. U onomastika sohasida ko'plab asarlar yaratgan va nomlarning tarixi, ma'nosi, tuzilishi va lingvistik tahlili bilan shug'ullangan. "The Oxford Dictionary of Family Names in Britain and Ireland" (R.Coates, P.Hanks, P.McClure, 2016)[8]. Bu asarda Britaniya va Irlandiyadagi familiyalar va ularning etimologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. U ingliz onomastikasining taniqli olimi sifatida, o'zining ilmiy ishlarida shaxs ismlari, joy nomlari va ularning evolyutsiyasini o'rganishga katta hissa qo'shgan. R.Coates onomastikaning asosiy yo'nalishlarini klassifikatsiya qilgan. U joy nomlarining tahlili, tarixiga lingvistik jihatdan ilmiy yondashgan. Ilmiy ishlarida Buyuk Britaniya va Irlandiyada ishlatiladigan ingliz, shotland, uels, irland, kornish va muhojirlar familiyalarini o'z ichiga olgan 45000 dan ortiq familiya yozuvlarini o'zida mujassam etgan ko'plab muhim fikrlarni keltirgan. Ushbu lug'atda 100 dan ortiq kishilar tomonidan ishlatiladigan familiyalar birma bir kiritilgan. Har bir yozuvda familiyaning turlicha yozilish shakllari, kelib chiqishi shu jumladan etimologiyasi, dastlabki foydalanish dalillari bilan birga familiyaning paydo bo'lishi, ya'ni XIX asrgacha bo'lgan davomiyligni o'z ichiga olgan.

P.Hanks - Ingliz familiyalari va ularning ma'nolari bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilgan. Uning "Dictionary of American Family Names" (P.Hanks., 2003) asari orqali ismlar va joy nomlarini tahlil qilish, ularning lingvistik, madaniy aspekti va tarixiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan [7]. P.Hanksning tadqiqotlarida joy nomlari va tilning o'zgarishlari orasidagi bog'liqlikni o'rganish alohida o'rin tutadi. U onomastik birliklar va tilning tarixi o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Amerika Qo'shma Shtatlarida keng tarqalgan familiyalar haqida batafsil ma'lumot olish uchun ushbu lug'at nashri yaratilgan. Ushbu nashr 10 yillik tadqiqot va 30 nafar tahrirchi ishtirokida tayyorlangan bo'lib, unda mamlakat bo'ylab 70,314 ta familiya hujjatlashtirilgan. Tahrirchi P.Hanks boshchiligidagi 100 million AQSh aholisining ismlari to'plangan va tanlash mezonlari orqali ishlab chiqilgan. Tanlov jarayonida kamida 100 marta uchraydigan familiyalar aniqlangan va keyingi bosqichda ularning lingvistik kelib chiqishi o'rganilgan. Har bir familiyaning muayyan til yoki madaniyat bilan bog'liqligi tekshirilgan va shu orqali nomlash an'analari tahlil qilingan. Madaniy assimilyatsiya jarayonlari haqida ma'lumot olish uchun ham ismlarning o'ziga xosligi o'rganilgan. Shuningdek, familiyalar geografik manzillarga bog'lanib, ma'lum bir hududlardagi etnik guruhlarining mavjudligi aniqlangan. Mazkur lug'atda familiyalar haqida ularning ma'nosi, millati, muqobil yozilish shakllari, ularga xos bo'lgan odatiy ism va familiyalar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ilmiy tadqiqot familiya va ularning tarixiy-madaniy ildizlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

XIX-XX asr onomastika sohasining serqirra ijodkori E.Veekeydir. Olim tilshunoslik, onomastika va etimologiya bo'yicha asarlar yaratgan. Ismlar [given names] va familiyalar [surnames] tarixini o'rganish, ularning kelib chiqishi, ijtimoiy va madaniy ta'sirlarini tahlil qilish bo'yicha ish faoliyatini yuritgan. Uning "The Romance of Names" (Weekley, 2023) nomli kitobi ism va familiyalarining etimologik, tarixiy, lingvistik, turli davrlardagi o'zgarishlari va ijtimoiy kontekstini tahlil qilgan[9]. Familiyalarining qanday shakllanganligi, kasb-hunar, joy nomlari va xulq-atvor asosida yaratilgan familiyalar haqida ma'lumot beradi. U ism va familiyalarining geografik kelib chiqishini kasb-hunar va shaxsiy xususiyatlarga asosan tasniflagan. Inglizfamiyalarining Norman bosqini, feodal tuzum va sanoat inqilobi kabi tarixiy davrlardagi rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan. E.Veekey ism va familiyalarni tadqiq qilishda tarixiy hujjatlar va lingvistik materiallardan foydalangan. Uning asarlarida ko'plab tarixiy misollar va statistik materiallar mavjud. Til va tarixning boy to'qimasi orqali nomlarning kelib chiqishi, ma'nosi va madaniy ahamiyati tahlil qilingan. E.Veekey nomlar ortidagi sirli tarixni ochib beradi va har bir nomda yashiringan fikr, davr, voqea va bog'lanishlarni tadqiq etadi. U o'zining sinchkov tadqiqotlarida qadimiy afsonalar, tarixiy shaxslar va tilning ta'siri bilan bog'liq tanish nomlarning qiziqarli hikoyalarini ochib beradi. Asarda, shuningdek, adabiyot, folklor va ommaviy madaniyatdagi nomlarning ahamiyati ham o'rganilgan. U ertaklar va mifologiyadagi ramziy nomlardan tortib, adabiyot va ko'ngilochar sohalardagi taxalluslar va soxta ismlar orqali nomlarning shaxslar va ularning hikoyalariga bo'lgan ta'sirini tahlil qilgan. Mazkur asar hayotiy faktlar, qiziqarli ma'lumotlar bilan to'yinganligi, tilning xilma-xil madaniyatga

## PEDAGOGIKA

bo'lgan ehtirom bilan ajralib turadi. Olimning mavzuga bo'lgan qiziqishi har bir sahifada aks etadi va o'quvchini kashfiyot va izlanishlar olib borishga chorlaydi. Bu asar onomastika sohasida klassik asar sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning chuqur tadqiqotlari, tushunarli bayoni va qiziqarli uslubi uchun yuqori baholangan. Bu kitob lingvistlar, tarixchilar va tilshunoslik bilan qiziqqan har bir kishi uchun muhim manba hisoblanadi. Asarda Mesopotamiya va Misr kabi qadimiy sivilizatsiyalardan tortib, zamonaviy global jamiyatgacha bo'lgan nomlarning boy tarixi va madaniy ahamiyati yuksak darajada yoritib berilgan. Tarixga yoki nomlar mohiyatiga qiziqqan har bir shaxs uchun bu ilmiy asar onomastika dunyosining noyob jihatlarini ochib beradi.

D.Mills onomastika sohasidagi yetuk olimlardan biri bo'lib, asosan Buyuk Britaniya geografik nomlarining etimologiyasi va tarixini o'rganishga qaratilgan. Uning ishlari lingvistika, tarix va madaniyat sohalarini birlashtirib, geografik nomlarning kelib chiqishi va ularning rivojlanish dinamikasini o'rganishga qaratilgan. U nomlarning mahalliy madaniyat va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqligi, yani diniy yoki siyosiy voqealar geografik nomlarning shakllanishiga qanday ta'sir etganligini aniqlagan. Uning "A Dictionary of British place-Names" (Mills, 2003) nomli asari Buyuk Britaniyadagi geografik nomlarning to'liq etimologik lug'atini taqdim etgan [6]. Ushbu lug'atli asarda D.Millsning tadqiqotlari Britaniyaning turli mintaqalari, xususan, Angliya, Shotlandiya va Uels geografik nomlariga bag'ishlangan. U har bir mintaqadagi nomlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, ularni umumiy madaniy va lingvistik tendensiyalar bilan bog'lagan. U o'z tadqiqotlarida bir qancha innovatsion metodlarni qo'llagan. Nomlarning tarkibini morfologik va semantik jihatdan tahlil qilish orqali ularning asosiy ma'nosini aniqlagan. Geografik nomlarning ilk yozma manbalardagi ko'rinishlarini o'rganib, ularning tarixiy rivojlanish bosqichlarini va tarqalishini xaritalash orqali mintaqaviy o'zgarishlarni vizual tarzda tahlil qilgan. Olim Buyuk Britaniyadagi geografik nomlarning mavjud bo'lgan anglo-sakson davridagi shakllangan nomlar, ularning bugungi ko'rinishi va kelt tilini geografik nomlarning semantik tarkibiga jiddiy ta'sirining muhim rol o'ynaganini aniqlagan. Anglo-sakson, kelt, lotin va boshqa qadimgi tillarning ushbu nomlarga ta'sirini chuqur o'rgangan.

D.Millsning tadqiqotlari nafaqat onomastika sohasini rivojlantirdi, balki lingvistika, tarix va madaniyat sohaları uchun muhim ma'lumot manbai bo'lib xizmat qildi. Uning ishlari geografik nomlarning tarixiy rivojlanishiga doir keng qamrovli ma'lumotlar bera olgan. Onomastika sohasida yangi tadqiqot usullari yaratilgan, shu bilan birga, Britaniya hududiy tarixining lingvistik manzarasi yanada to'liq ochib berilgan. Bu asar Buyuk Britaniya joy nomlariga bag'ishlangan eng to'liq va zamonaviy lug'at bo'lib, Angliya, Shotlandiya, Irlandiya va Uelsdagi 15 000 dan ortiq joy nomlari alifbo tartibida yozilgan. Mazkur lug'atda "Abbas Combe"dan "Zennor" gacha bo'lgan graffliklar, shaharlar va qishloqlar nomlarining ma'nosi, uning kelib chiqishi, shuningdek, qadim zamonlardan to bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish tarixi ochib berilgan. Mahalliy hududlar bo'yicha ma'lumot izlayotganlar uchun, leksikograflar va mahalliy tarixchilar uchun bu lug'at muhim manba hisoblanadi. U joy nomlarining kelib chiqishiga oid qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Lug'atning kirish qismida Britaniya joy nomlarining xronologik rivojlanishi va shakllanish jarayonlari haqida kengroq ma'lumot beriladi. Irlandiya, Uels va Shotlandiyaga xos bo'lgan joy nomlari alohida ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, tadqiqotchilar uchun foydali bo'lgan keng bibliografiya, eski va yangi hududiy chegaralarni aks ettiruvchi xaritalar hamda joy nomlarida uchraydigan umumiy elementlar ro'yxati (Glossariy) ham keltirilgan.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Richard Koates, Patrik Hanks, Ernest Veekley va David Mills onomastika sohasiga beqiyos hissa qo'shgan olimlardir. Ularning tadqiqotlari orqali ismlar, familiyalar va joy nomlarining tarixiy va lingvistik jihatlar chuqur o'rganilgan va tahlil qilingan. Demak, ism, familiya, joy nomlari o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy sharoitlari, bo'lib o'tgan voqealar, hodisalar haqida o'quvchida ma'lum bir tasavvurlar va tushunchalar hosil bo'lishiga ham imkon yaratib berishi mumkin ekan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Komilova M.X. *Ingliz va o'zbek etnik guruh vakillarining farzandga ism berish motivlari*. – Toshkent: *Pedagogika ilmiy nazariy va metodik jurnal*, 2023, 5-son, 36–41-betlar. (Komilova M.X. *Motives for Naming Children Among Representatives of English and Uzbek Ethnic Groups*. – Tashkent: *Pedagogical Theoretical and Methodological Journal*, 2023, Issue 5, pp. 36–41.)

2. Iskandarova Sh.M., Komilova M.X. O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari. – *FarDU Ilmiy xabarlar jurnal*, 2024, 2-son, 444–447-betlar. (Iskandarova Sh.M., Komilova M.X. *Issues of Semantics of Some Anthroponyms in Uzbek and English*. – *Scientific Bulletin of FarSU*, 2024, Issue 2, pp. 444–447.)
3. Komilova M.X. O'zbek va ingliz onomastikasida antroponimlarning o'rganilishi. – In: *Proceedings of the International Scientific and Practical Conference on Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions, and Development Prospects*, 2024, 26-aprel, 208–209-betlar. (Komilova M.X. *The Study of Anthroponyms in Uzbek and English Onomastics*. – In: *Proceedings of the International Scientific and Practical Conference on Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions, and Development Prospects*, April 26, 2024, pp. 208–209.)
4. Komilova M.X. O'zbek va ingliz antroponimlarining chog'ishtirish masalalari. – *Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnal*, 2024, 5-son, 285–287-betlar. (Komilova M.X. *Comparative Issues of Uzbek and English Anthroponyms*. – *Scientific Bulletin of the Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages*, 2024, Issue 5, pp. 285–287.)
5. Komilova M.X. *The importance of the study of onomastic units in the learning of foreign languages*. – *International Journal of Scientific Trends (IJST)*, 2024, December, 3(12), 168–170-betlar. (Komilova M.X. *The Importance of the Study of Onomastic Units in the Learning of Foreign Languages*. – *International Journal of Scientific Trends (IJST)*, 2024, December, 3(12), pp. 168–170.)
6. Mills, A. D. *A Dictionary of British Place-Names*. – Velikobritaniya: OUP Oxford, 2003. 576 bet. (Elektron).
7. P.Hanks. (2003). *Dictionary of American Family Names*. Великобритания: Oxford University Press.
8. R.Coates, P.Hanks, P.McClure. (2016). *The Oxford Dictionary of Family Names in Britain and Ireland*. Oxford University Press: Oxford University Press.
9. Weekley, E. (2023). *Names: The Romance of Names*. Великобритания: Prabhat Prakashan.